

(*amarakosha*, meaning “treasure”) and *nighantu* (commentaries on the Vedas), among others.

The progression of lexicography typically follows this sequence: translation dictionaries → linguistic dictionaries → encyclopedic dictionaries → educational dictionaries → electronic dictionaries. Studies in world linguistics suggest that the very first dictionaries were produced for pedagogical purposes.

In ancient Mesopotamia (IV–III centuries BC), Sumerian and Akkadian captives, despite speaking different languages, were forced to coexist for extended periods. Their need for communication prompted a groundbreaking development: they compiled lists of plants, fruits, mountains, materials, gods, temples, and various objects, recording the equivalents in their own languages [1]. They also created a syllabic writing aid, marking syllables to facilitate learning [4]. This early lexicographic record was preserved in the Nippur temple library and eventually laid the foundation for the first language-learning manuals.

The evolution of modern school dictionaries can be divided into three main stages:

1. Early school dictionaries;
2. Multilingual dictionaries;
3. Refined linguo-methodological dictionaries.

The first stage represents the earliest efforts in lexicography, originating in cultural centers such as France, Italy, England, Russia, and elsewhere in Europe, beginning from ancient Rome through Byzantium. These traditions developed within Greco-Latin linguistic practices, closely connected with Eastern cultural influences.

The earliest known dictionary works include those from Egypt and Mesopotamia, as well as by Aristophanes of Byzantium (3rd–2nd centuries BC) and Dionysius of Thrace (2nd century BC) [1]. Aristophanes compiled glossaries explaining obscure words found in classical texts, whereas Dionysius produced a school dictionary that categorized words grammatically—an ancient precursor to ideographic dictionaries [6].

Similarly, during the 4th–3rd centuries BC, Akkadian and Sumerian communities, despite their linguistic differences, increasingly interacted. This practical necessity spurred the production of bilingual school manuals, paving the way for systematic language learning.

These early manuals can reasonably be regarded as the world’s first pocket dictionaries. In modern times, the role of dictionaries in education has expanded significantly [4]. In general secondary education, they help foster independent and creative thinking, strengthen national identity, and cultivate the ability to articulate thoughts both orally and in writing [5]. After Uzbekistan’s independence, mother-tongue education underwent major reforms, with the goal of nurturing creative expression and ensuring that every graduate can competently use their native language in spoken and written form [8].

Cognitive technologies in native-language instruction further increased the demand for dictionaries, which have been officially recognized—alongside textbooks—as essential teaching resources in the state educational standard. These advances demonstrate that Uzbek educational lexicography has entered a new developmental stage.

## REFERENCES

1. Islomov I. Bobojonov Sh. Uzbek Dictionary of Word Levels 2007-2009
2. Mengliyev B. Khudoiberdiyeva M. "Dictionary of Uzbek language phrases" 2007-2009
3. Mengliyev B.M. Bahriddinova B.M. Uzbek Vocabulary Dictionary, 2007-2009
4. Mengliyev B.M. Bahriddinova BM, Kholiyorov O '. Uzbek word-formation dictionary, 2008
5. Mengliyev B.R. Modern Uzbek literary language. Phonetics-phonology. Graphics. Spelling. Lexicology-semiotics. Lexicography. Part I Against. 2004.
6. Nafasov T. Nafasova V. "Dictionary of Uzbek pronunciation words" 2008.
7. Nafasov T. Nafasova V. "Educational toponymic dictionary of the Uzbek language" 2007
8. Nematov H., Rasulov R. Fundamentals of systemic lexicology of the Uzbek language. -T .: Teacher. 1995.-p.127 .
9. O.Shukurov, B.Boymatova "Dictionary of synonyms of the Uzbek language" 2007-2009.
10. A guide to compiling an explanatory dictionary of the Uzbek language. T .: Fan. 1964, p.84 .

# TURLI TIZIMDAGI TILLARDA TAQLID SO‘ZLAR YORDAMIDA OLAMNING LISONIY MANZARASINI IFODALANISHI

**Gulchexra Umurzakova,**

Oriental universiteti Tillar-2 kafedrasida katta o‘qituvchisi, PhD

[gulidil425@gmail.com](mailto:gulidil425@gmail.com)

<https://zenodo.org/records/17339636>

**Annotatsiya.** Taqlid so‘zlardan misollar turli tizimdagi tillarda farqlanishiga olamning lisoniy manzarasini obrazli metaforik so‘zlar, o‘xshatishlar, konnotativ so‘zlar, stereotiplar, ramzalar vositasida yaratiladi. Har qanday til o‘zida mazkur til egasining dunyoqarashini belgilaydigan va olam manzarasini shakllantiradigan milliy, o‘ziga xos xususiyatlar tizimini mujassamlashtiradi.

**Kalit so‘zlar:** turli tizimdagi tillarda, taqlid so‘zlar, olamning lisoniy manzarasi, metaforik so‘zlar, stereotiplar.

**Abstract.** The article analyzes the division of onomatopoeia as a separate part of speech, lexical and semantic features, communicative-pragmatic characteristics, their derivations; general study of imitative words in the Uzbek and English linguistics; pragmatically, semantic, syntactic peculiarities; capacities to build new words, a role in a sentence, the ways to combine with other members of the sentence.

**Keywords:** imitative words, phenomenon, onomatopoeia, sound, morphological, pragmatical.

Turli tizimdagi tillar, xususan, o‘zbek, ingliz va rus tillarida taqlid so‘zlar muayyan tovush yoki obrazga taqlidni anglatishiga ko‘ra umumiy xususiyatga ega bo‘lsa-da, bu tillarda ular fonetik, struktur jihatdan farqlanadi. Bunga o‘zbek, ingliz, rus xalqlarining tovushlarni idrok etishi va uni tilda aks ettirishda foydalangan milliy tilining ichki xususiyatlari ta’sir ko‘rsatadi.

Quyidagi jadvalda o‘zbek, ingliz va rus tillarida taqlid so‘zlar qiyosi keltirilgan:  
*1-jadval*

## O‘zbek, ingliz va rus tillarida taqlid so‘zlar qiyosi

	Rus tilida taqlid	O‘zbek tilida	Ingliz tilida taqlid	Izoh
1	Уа-уа	Inga-inga	/wah-wah/	Bola yig‘isi
2	Гав-гав	Vov-vov	/wu:f /	It akillashi
3	Ш-ш-ш-ш	Shuv-sh-sh	/ʃʃ/ /S S/ swish	Shamol hurishi
4	Чик-чирик	Chir-chir	/tʃɪp tʃɪp/ /tʃɪp tʃɪp/	Qush sayrashi
5	Виш-виш	Vish-vush	/bʊzz bʊzz/	Noaniq tovushlar
6	Чирк-чирк	Chiy-chiy	/klak-klak/	Jo‘ja chiyillashi
7	Тик-так	Chiq-chiq	/click-clock/	Soat tovushi

8	Ку-ка-ре-ку	Qu-qu-ru-qu	/cock-a-doodle-doo/	Xo‘roz qichqirig‘i
9	Му-му	Мо‘ -мо‘	/moo moo/	Sigir ma‘rashi
10	Треск, шик	Buh, tirs	/ bæŋg/ / boom/	Sinish, portlash
11	Кар-кар	Qaq-qaq	/kaʊ kaʊ/	Qarg‘a tovushi
12	Ах, Ох	Oh-voy	/oʊtʃ/ /ah/	Og‘riqdan ingrash
13	Иа-иа	Yo-yo	/hi: haʊ/	Eshak hangrashi
14	Зинг-зинг	Jiring-jiring	/di:ŋg dʊŋg/	Eshik jiringlashi
15	Кап-кап	Tin-ting	/dri:p drap/	Suv tomchisi
16	Кря-кря	G‘aq-g‘aq	/kʊæk kʊæk/	O‘rdak ovozi
17	Ням-ням	Ham-ham	/yum yum/	Ovqat yeganda chapillash
18	Тук-тук	Duk-duk	/ba bʊmp/	Yurak urushi
19	Муах-муах	Cho‘lp-cho‘lp	/mwah/ /Smu:tʃ/	O‘pish
20	Тук-тук	Taq-taq	/nʌk nʌk/	Eshik taqillatishi
21	Ха-ха-ха	Xe-xe	/ha ha/	Kulish
22	Мяу-мяу	Миёв-миёв	/miju miju/	Mushuk ovozi
23	Апчи	Арчу	/æti:shoo/ /ætʃoo/	Aksirish
24	Хр-хр	Xur-xur	/zzz.../	Xurak otish
25	Бе-бе	Ba-ba	/bææ... bææ/	Qo‘y ba‘rashi

E.Dofs fikricha, hayvonlarning tovushlari, masalan, barcha mamlakatlarda bir xil, ammo turli tizimdagi tillarda ifodalash usuli farqli<sup>1</sup>.

Hayvonlarning turli xil tovushlari, tillarning turli fonologik yoki morfologik tizimlari tufayli bo‘lishi mumkin. Ko‘rinadiki, turli tizimdagi tillardagi fonemalar har xil fonologik tizim tufayli jadvalga nisbatan turli xil ma‘nolarga ega bo‘lsa-da, undoshlarda ham, unilalarda ham farq bor ko‘rinadi. Ikki tilda ma‘no ozmi-ko‘pmi bir xil. Tadqiqot doirasida biz turli tizimdagi tillarning ba‘zi onomatopoeik harakatlari, ayniqsa, hayvonlarning turlari, har bir tilning turli fonologik yoki morfologik tizimlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan hayvonlarning ovozlari nisbatan bir-biridan farq qiladi degan xulosaga keldik. Ushbu tadqiqotga ko‘ra, biz nafaqat onomatopeya va alliteratsiyadan, balki tovush imkoniyatlaridan ham foydalanishimiz mumkin.

Har bir xalq o‘zicha ko‘radi, eshitadi, zavqlanadi. Misol uchun *chittak* degan qush nomini olaylik. Bu qushni nomlashda o‘zbek xalqi uning harakatini asos qilib olgan. Bu qush tez harakat qiladi (“*chit-chit*”), o‘zbek shu harakatni dastlab ko‘rgan bo‘lsa, rus kishisi bu qushning rangini dastlab ko‘rgan. U ana shu rangni nomga asos qilib olib, ayni qushni “*sinitsa*” deb nomlagan. Yoki o‘zbek tovuqning bolasi chiqaradigan tovushni “*jip-jip*” tarzida eshitadi, shuning uchun uni *jo‘ja* deb ataydi. Rus esa “*sip-sip*” deb eshitgani uchun uni “*siplyonok*” so‘zi bilan ataydi. Bu juda oddiy misollar, aslida har bir xalqning dunyoni o‘zicha ko‘rishi va eshitishi, idrok etishi behad murakkab tarzda kechadi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Dofs E, 2008. Onomatopoeia and Iconicity (A Comparative Study of English and Swedish Animal Sounds). MA Thesis, Karstads University. Falk JS, 1978. – 28 p.

<sup>2</sup> Махмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент, 2012.– Б. 13.

1-Jadvalda berilgan taqlid soʻzlardan misollar turli tizimdagi tillarda farqlanishiga olamning lisoniy manzarasini obrazli metaforik soʻzlar , oʻxshatishlar , konnotativ soʻzlar, stereotiplar, ramzalar va h.k. vositasida yaratiladi. Har qanday til oʻzida mazkur til egasining dunyoqarashini belgilaydigan va olam manzarasini shakllantiradigan milliy, oʻziga xos xususiyatlar tizimini mujassamlashtiradi .

Turli tizimdagi tillar, xususan, oʻzbek, ingliz va rus tillariga mansub bu kabi taqlid soʻzlar nutq egasining kommunikativ maqsadi bilan bogʻliq holda turli pragmatik maʼnolarga ega boʻladi. Bu holat ularni pragmatik aspektda oʻrganish lozimligini koʻrsatadi.

Darhaqiqat, taqlid soʻzlarning nutq vaziyati, kontekstda reallashuvchi pragmatik xususiyatlari soʻzlovchining kommunikativ maqsadi asosida yuzaga chiqadi. Soʻzlovchi nutqida taqlid soʻzlardan foydalanar ekan, ularga kommunikativ maqsadi asosida muayyan pragmatik vazifa yuklaydi. Natijada taqlid soʻzlar turli pragmatik maʼnolarga ega boʻladi.

D.Lutfullayeva va L.Boboxonovlar oʻzbek tilidagi ayrim taqlid soʻzlarning pragmatik xususiyatini tekshirib, ularning quyidagi vaziyatlarda pragmatik vazifa bajarishini qayd etishgan: "... oʻzbek tilida taqlid soʻzlar: a) deytik (ishoraviy) xususiyati asosida nutqda pragmatik vazifa bajaradi: b) nutq subyektining voqelikka baho munosabatini ifoda etganda pragmatik vazifa bajaradi; c) nutqiy muloqot jarayonida nutq subyektining kommunikativ niyatiga bogʻliq holda yashirin propozitsiyaga ishora qilish vazifasi yuklatilganda pragmatik vazifa bajaradi"<sup>1</sup>.

Anglashiladiki, taqlid soʻzlarning pragmatik vazifaga ega boʻlishi asosiy hollarda inson omili bilan bogʻliq. Taqlid soʻzlar deytik xususiyatli birliklar boʻlganligi uchun ular oʻzi bogʻlangan predmetlarga bevosita ishora qila oladi. Bu oʻrinda taqlid soʻzlar toʻgʻridan-toʻgʻri pragmatik xususiyatini namoyon qiladi.

Taqlid soʻzlarning qayd etilgan pragmatik vazifalari boshqa tillar, xususan, ingliz, rus tillaridagi taqlid soʻzlar uchun ham xos. Biroq taqlid soʻzlar boshqa til birliklari kabi til egalarining milliy-madaniy xususiyatlari, ruhiy holati, kommunikativ niyati bilan bogʻlanishi sababli turli tillarda taqlid soʻzlarning pragmatik maʼnolarida farqli jihatlar kuzatiladi.

Taqlid soʻzlarning pragmatik xususiyatlaridan biri nutq egasining baho munosabatini ifodalashda qoʻllanishida namoyon boʻladi. Nutq egasining muayyan nutq vaziyatida taqlid soʻzlar orqali voqelikka salbiy yoki ijobiy bahosining ifodalanishi koʻplab taqlid soʻzlar uchun xarakterli pragmatik belgi hisoblanadi. Ammo barcha taqlid soʻzlar ham nutq egasining subyektiv munosabatini ifoda etavermaydi. Shunga qaramay, har bir tildagi taqlid soʻzlar shu til egalarining tovush yoki koʻrinish (obraz)ni qanday idrok etishi haqida toʻliq maʼlumot bera oladi. Boshqacha aytganda, taqlid soʻzlarda til egalarining borliqdagi tovush yoki koʻrinish (obraz)ni fahmiy idrok etishi lisonda oʻz milliy manzarasiga ega boʻladi.

1. *Kelin uzatildi. Kelin yigʻi boshladi:* – Uvv-uvvv-uvvv... (T.Murod. "Oydinda yurgan odamlar")

2. *Jiyani belidan qoʻshqoʻllab quchoqlab olmish kelin eshitilar-eshitilmas yigʻlab bordi:* – Uvv-uvv-uvv... (T.Murod. "Oydinda yurgan odamlar")

---

<sup>1</sup> Лутфуллаева Д., Бобохонов Л. Koʻrsatilgan maqola. – B. 29.